

**FIZIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH: KAHOOT PLATFORMASI MISOLIDA****Jalolova Kamola Eralijon qizi****MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:05.09.2025**Revised: 06.09.2025**Accepted:07.09.2025***KALIT SO'ZLAR:***innovatsion , internet
platforma, quiz,
Kahoot.it**Ushbu maqolada fizika o'qitish jarayonidagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar, xususan Kahoot platformasidan foydalanilgan holda dars jarayonini interaktiv tashkil qilish va ta'lim samaradorligini oshirish usullari**to'g'risida so'z yuritilgan..*

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir davrda darsga o'quvchilarni jalb qilish va ularni diqqatini darsga qaratish biroz mushkul bo'lib bormoqda. Bu kabi muommolar ta'limga innovatsiyalarni olib kirishga sabab bo'lmoqda. Ta'limdagi innovatsion faoliyat bu nima o'zi? Ta'limdagi innovatsion faoliyat ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks faoliyatni o'z ichiga oladi. Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Har bir sohaga innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilinishi, shu sohadagi jadal rivojlanishni o'zida namoyon qilmoqda. Shu bilan birga ta'lim sohasiga ham innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'z samarasini bermoqda. O'quv jarayonini axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida tashkil qilish o'quvchilar bilimini keskin oshishiga olib kelmoqda.

So‘nggi yillarda keng tarqalgan onlayn vositalardan biri bu — **Kahoot** platformasidir. Ushbu platforma orqali o‘qituvchi real vaqt rejimida o‘quvchilarga viktorinalar, testlar yoki interaktiv savollarni taqdim etadi. Bu esa, nafaqat darsni jonlantiradi, balki o‘quvchilarda bilim olish jarayoniga faol jalb etilish hissini uyg‘otadi.



Bundan tashqari, Kahoot dars davomida ijobiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishdan cho‘chimay, ko‘ngilochar tarzda bilim olishadi. O‘qituvchi esa dars yakunida statistik tahlil orqali kim qanday natija ko‘rsatganini tez va aniq baholay oladi.

Kahoot platformasi o‘quvchilarning bilim darajasini tekshirish, ularni faol fikrlashga undash va dars jarayonini jonlantirish uchun mo‘ljallangan turli xil test shakllarini taqdim etadi. Ushbu shakllar orqali o‘qituvchi dars mazmuniga, sinfning umumiy tayyorgarlik darajasiga va o‘quvchilarning qiziqishlariga qarab mos uslubni tanlashi mumkin. Test shakllari o‘zaro farqli bo‘lib, har biri alohida didaktik vazifani bajaradi. Quyida ular haqida batafsil to‘xtalamiz:

1. Quiz (Ko‘p variantli test)

Bu eng keng tarqalgan test turi bo‘lib, har bir savolga bir nechta (odatda 2–4 ta) javob variantlari beriladi. O‘quvchi ular orasidan faqat bittasini tanlashi kerak. Bu shakl o‘quvchilarning faktik bilimini aniqlash, tez fikrlash qobiliyatini baholash va asosiy tushunchalarni mustahkamlashda ayniqsa samaralidir. Fizika darslarida, masalan, formulalarni tanish, birliklarni aniqlash, asosiy qonunlar yoki fizikaviy hodisalarni ajratish uchun aynan shu shakl ko‘p qo‘llaniladi.

2. True/False (To‘g‘ri/Yolg‘on savollar)

Bu test shakli savollarga “ha” yoki “yo‘q” tarzida tez va aniq javob berish imkonini beradi. Bu testlar qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma‘lumotni takrorlash yoki umumiy tushunchalarni tekshirish uchun ideal. Fizikada bu shakldan foydalanib, nazariy gaplarning to‘g‘riligini aniqlash, tushunchalarni mustahkamlash yoki noto‘g‘ri tasavvurlarni bartaraf etish mumkin.

3. Puzzle (Tartiblash topshirig'i)

Puzzle shakli o'quvchilardan ma'lum elementlarni to'g'ri tartibda joylashtirishni talab qiladi. Bu testlar ketma-ketlikni tushunish, sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash, formulalarning tuzilishini tushunish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda foydalidir. Masalan, fizika darsida biror fizik hodisaning bosqichma-bosqich kechishini yoki formula qismlarini to'g'ri tartibga solish uchun qo'llansa bo'ladi.

4. Word Cloud (So'z buluti)


Bu test shaklida o'quvchilarning kiritgan javoblari umumiy "so'z buluti" ko'rinishida chiqadi. Javoblar ko'p takrorlangan sari yirikroq yoziladi. Bu usul muayyan mavzuga oid tushunchalarni umumlashtirish, asosiy kalit so'zlarni ajratish yoki dars yakunida umumiy xulosa chiqarish uchun qo'llanadi. Masalan, "Bugungi mavzuni bitta so'z bilan ifodalang" degan topshiriq berilishi mumkin.

Bundan tashqari Kahoot platformasida slide tayyorlash imkoniyati ham mavjud yoki so'rovnomalar savollari ham tayyorlash imkoniyati bor.

Test yaratish uchun esa quyidagi amallar amalga oshiriladi:

1. Boshqaruv panelining yuqori qismida joylashgan "Create" tugmasi bosiladi.
2. Foydalanuvchi uchun test tuzish interfeysi ochiladi.
3. Har bir savol uchun quyidagilarni kiritish imkoniyati mavjud: Savol matni, 2–4 ta javob variant, To'g'ri javobni belgilash, Har bir savol uchun vaqt (10–60 soniya), Rasm yoki video qo'shish imkoniyati mavjud.
4. Test yakunida yaratilgan testga nom beriladi, mavzusi belgilanadi va "Done" tugmasi bosilib yakunlanadi.

Quyida True/False usulidagi test tuzish ko'rsatib o'tilgan:




2-rasm. True-False shaklida test yaratish namunasi

Bunda rasm formula yoki chizmalarni internetdan tog'ridan-to'g'ri yuklab olish yoki komyuter xotirasida mavjud fayllardan foydalanish mumkin. Savollarni joylashtirish davomida to'g'ri javob ham birdaniga belgilab boriladi. Bu test uchun agar berilgan savol to'g'ri bo'lsa "True" belgilanadi agar noto'g'ri bo'lsa "False" tugmasini belgilab boriladi. Platformani ustunlik jihatlaridan biri test savollarini yozish oynasida har bir test savollarini qiyinlik darajasiga qarab alohida-alohida vaqt tayinlash mumkin. Yana bir imkoniyatlardan biri esa har bir test savoliga mos rasmlarni joylashtirish mumkin.




3-rasm. True-False testi namunasi



4-rasm. True-False testi namunasi

Testlar yaratilgandan so'ng ulardan qanday qilib dars mashg'ulotida foydalanish mumkin? Testlardan foydalanishning ikki usuli mavjud: QR-kod orqali yoki PIN-kod yordamida amalga oshiriladi. QR-kod va PIN-kod o'quvchilar bilan ulashiladi va ular test o'tkaziladigan sahifaga kirib o'z ismlarini yozgan holda qo'shilib olishlari mumkin. Bu amallar <https://kahoot.it/> sayti orqali amalga oshiriladi.



5-rasm. O'quvchilarning testga kirish oynasi

Bundan tashqari o'qituvchi har bir test boshlanishidan avval test o'tkazilishi interfeysini tanlash imkoniyati mavjud bo'lib interfeysga mos ravishda orqa fonda turli xil maxsus effektlar ham o'zgarib boradi. Test yakunida avtomatik ravishda natijalar hisoblanib g'olib o'quvchi ballar hisoblangandan so'ng aniqlanadi. Bu yerda ham turli hil maxsus effektlardan foydalangan holda o'quvchilarning ballari natijalari e'lon qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat dars samaradorligini oshirish, balki o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, fizika darslarida **Kahoot platformasidan foydalanish** o'quvchilarni darsga faol jalb etish, ularning bilimini interaktiv tarzda baholash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Kahoot orqali tashkil etilgan testlar, viktorinalar va so'rovnomalar o'quvchilarda musobaqalashish, tezkor fikrlash, diqqatni jamlash va mavzuga yanada chuqurroq kirib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek,

o'qituvchi uchun ham bu platforma qulay bo'lib, o'quvchilarning bilim darajasini tezkor va aniq aniqlash, dars yakunida umumiy tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.researchgate.net/publication/342980814_LANGUAGE_LEARNING_AND_TEACHING_USING_KAHOOT
2. "Kahoot - o'yinli o'quv platformasidan foydalanib talabalar bilimlarini baholash"
Hasanov.A.A "Экономика и социум" №12(103)-1 2022
3. Kahoot.it

